



**UNODC**  
United Nations Office on Drugs and Crime  
Regional Office for Central Asia



**UNESCO**  
United Nations  
Educational, Scientific and  
Cultural Organization



**YOUTH AFFAIRS  
AGENCY**



**TASHKENT  
STATE  
UNIVERSITY  
OF LAW**

# SO'RAGAN EDINGIZ



Jinoyat huquqi masalalari bo'yicha  
savol-javoblar to'plami

Mazkur to'plam Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi hamkorligida tayyorlangan huquqiy ommabop adabiyotlardan biri hisoblanadi. To'plamni tayyorlashdan asosiy maqsad aholining, xususan yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, kundalik hayotda turli sohalarda ro'y berayotgan huquqiy muammolarning yechimini savol-javob tarzida, keng jamoatchilikka tushunarli shaklda yetkazishdan iborat.

Ushbu to'plam jinoyat huquqi munosabatlari sohasidagi masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda Toshkent davlat yuridik klinikasiga onlayn va bevosita kelib tushgan murojaatlar qisqacha javoblari bilan berilgan. Savollaringizni Toshkent davlat yuridik universiteti yuridik klinikasining ijtimoiy tarmoqlardagi quyidagi sahifalari orqali yo'llashingiz mumkin:

Telegram manzili: @probonouz\_bot

Facebook manzili: <https://www.facebook.com/tsullegalclinic/>

Instagram manzili: [https://instagram.com/tsul\\_legal\\_clinic](https://instagram.com/tsul_legal_clinic)

Youtube manzili:

<https://www.youtube.com/channel/UC4uvuX9DE2fSt6KZUxihMNA/featured>

TikTok manzili: [https://www.tiktok.com/@tdyu\\_yuridik\\_klinikasi](https://www.tiktok.com/@tdyu_yuridik_klinikasi)

Ushbu nashrning mazmuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi yoki uning faoliyatiga hissa qo'shadigan tashkilotlarning qarashlari yoki siyosatlarini aks ettirmaydi, shuningdek, ushbu nashrda qo'llanilgan va taqdim etilgan belgilar va materiallar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi tomonidan biron bir mamlakat, hudud yoki shaharning yoki uning hokimiyatining huquqiy maqomi yoki uning chegaralarini delimitatsiya qilish to'g'risida hech qanday fikr bildirishni nazarda tutmaydi.

Ushbu nashr to'liq yoki qisman va har qanday shaklda ta'lim yoki notijorat maqsadlarda, mualliflik huquqi egasining maxsus ruxsatisiz, manbani tasdiqlash sharti bilan ko'paytirilishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi ushbu nashrdan manba sifatida foydalanadigan har qanday nashrning nusxasini olishdan mamnun bo'ladi. Ushbu nashr BMTning Tinchlikni ta'minlash jamg'armasi tomonidan moliyalashtirilgan "Farg'ona vodiysida yoshlarning ijtimoiy uyg'unligi" qo'shma loyihasi doirasida tayyorlangan.

© Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021

© Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasining Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi, 2021

© Otabek Narziev, 2021

# **SO'RAGAN EDINGIZ**

(Jinoyat huquqi masalalari  
bo'yicha savol-javoblar  
to'plami)

# MUNDARIJA

1-savol. Jazo tayinlashdan oldin qamoqda ushlab turilgan har bir kun jazoning necha kuniga tenglashtiriladi? .....	6
2-savol. Qanday hollarda passport garovga qo'yiladi?.....	6
3-savol. Vaqtincha propiskaga qo'ysam bo'ladimi? .....	6
4-savol. Shaxsiy hayot daxlsizligi himoya qilinadimi?.....	7
5-savol. Xorijga chiqish uchun biometrik pasporti qanday olinadi?.....	8
6-savol. Qamoqqa olish va qamoqda ushlab turish tartibi qanday? .....	8
7-savol. Davlatdan qarzdorlik qanday undiriladi? .....	10
8-savol. Agar insonning shaxsiy yozishmalari boshqa inson tomonidan og'irlansa va oshkor qilinsa, unga qanday chora qo'llanilishi mumkin? .....	10
9-savol. Yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun chiqarilgan qaror ustidan sudga murojaat qilish mumkinmi? .....	11
10-savol. JKning 70-moddasi haqida tushuncha bering. Bu modda bilan shaxs javobgarlikdan ozod qilinsa, keyinchalik uning oila a'zolari faoliyatiga ta'siri qanday? .....	12
11-savol. Sudyaning xolisligiga shubham borligi sababli uning ishni ko'rishiga e'tiroz bildirishim mumkinmi?.....	12
12-savol. Mahalla raisi aybdor deb topilmasidan oldin uni lavozimidan ozod etish mumkinmi?.....	13
13-savol. Rasmiy hujjatlarni sohtalashtirish qanday javobgarlikga sabab bo'ladi? .....	14
14-savol. Apellyatsiya kimlar tamonidan yoziladi? Apellyatsiya yozilgan vaqtdan boshlab qancha vaqtda ko'rib chiqiladi?.....	14
15-savol. Jazoni yengillashtiruvchi holatlar qaysilar? .....	15
16-savol. Fuqaro aliment to'lay olmagan sababli unga nisbatan jinoiy ish ochiladimi? .....	16
17-savol. Tergov vaqti cho'zilib ketsa, fuqaro shikoyat qila oladimi? .....	16
18-savol. Jinoiy protsessual qonunchiligiga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlar haqida ma'lumot bera olasizmi?.....	17
19-savol. Jinoiy sherikchilikning kriteriyalari va yosh farzandi borlarga jazo yumshatilishi mumkinmi?.....	18
20-savol. Bir fuqaroga tuhmat qilish qanday jazo ko'riladi?.....	19
21-savol. Oilali erkak bilan nikohsiz ayolning ishqiy munosabatda bo'lishi javobgarlikka tortilishi mumkinmi? .....	19
22-savol. Fuqarolar orasida bir-biriga berilgan qarz qanday undiriladi?.....	19
23-savol. Talaba sudlansa-yu, lekin ozodlikdan mahrum etilmasa, uni talabalar safidan chetlatish qonuniymi? .....	20

24-savol. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mumkinmi? .....	21
25-savol. Advokat olish tartibi qanday?.....	22
26-savol. Avtohalokat ro'y berishi natijasida qurbonlar bo'la turib, haydovchini aybi bo'lmasa, bu vaziyatga qanday chora ko'riladi? .....	23
27-savol. O'zganing sha'niga putur yetkazuvchi viderolik, foto va videolarni ijtimoiy tarmoqqa joylaganlik uchun qanday jazo hukmi qo'llaniladi?.....	24
28-savol. Bir fuqaroni noqonuniy spirtli ichimliklar savdosi bilan shugullanayotganini qaysi davlat organlariga murojaat qilnadi?.....	25
29-savol. Tergov xulosasida qo'yilgan moddadan norozi jabrlanuvchi qayerga murojaat qilishi kerak? .....	25
30-savol. Avtomobilni qayta jihozlash hisoblanadimi?.....	25
31-savol. Bosqinchilik bilan mulk undirsh.....	26
32-savol. Badanga yengil tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlikga tortiladimi?.....	27
33-savol. Muddati o'tgan jarima qanday undiriladi? .....	27
34-savol. Ariza javobi muddati buzilsa, bunga qanday chora ko'riladi?.....	28
35-savol. Sudda ish ko'rib chiqilayotganda qaysi tomon sud xarajatlarini qoplaydi?.....	28
36-savol. Harbiy majburiyat qanday tartibda amal qiladi?.....	29
37-savol. Ehtiyotsizlik yoki e'tiborsizlik oqibatida jinoyat sodir etsa jinoyatga sherik hisoblanadimi? .....	30

### 1-savol:

#### **Jazo tayinlashdan oldin qamoqda ushlab turilgan har bir kun jazoning necha kuniga tenglashtiriladi?**

Amaldagi Jinoyat kodeksining 62-moddasiga binoan, jazo tayinlashdan oldin aybdor qamoqda ushlab turilgan bo'lsa, bu qamoq kunlari quyidagicha hisobga olinadi:

Sud jazo tayinlash chog'ida ushlab turishning, qamoqqa olishning yoki uy qamog'ining har bir kunini:

- a) ozodlikni cheklashning, intizomiy qismga jo'natishning, ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga;
- b) axloq tuzatish ishlarining yoki xizmat bo'yicha cheklashning uch kuniga;
- v) majburiy jamoat ishlarining to'rt soatiga tenglashtirib hisoblaydi.

Sud ushlab turilgan, qamoqda yoki uy qamog'ida saqlangan shaxsga jarima tayinlashda ushlab turishning, qamoqda yoki uy qamog'ida saqlashning bir kunini bazaviy hisoblash miqdorining ikkidan bir qismiga tenglashtirib hisobga oladi.

### 2-savol:

#### **Qanday hollarda passport garovga qo'yiladi?**

*"1 oy oldin ukam yo'llar muz bo'lganligi sababli mashinani boshqara olmay bekat yonidagi lavashxona oynasini sindirib yuboribdi. Bu aybi uchun undan 100\$ so'rashibdi. Buncha pul yonida bo'lmagani sababli o'rniga pasportini tashlab kelibdi. Ertasi kuni oynasini qildirib berib, pasportini ta'mir tugaganidan so'ng olaman, deb olmasdi. Keyingi kuni yana lavashxona egalari uyga kelib, oynaning nakleykasini oberasan, deyishdi. Ukam uni 400 mingga olib berdi. Kecha onam pasportini so'rab borsalar, nakleykani 300 mingga yopishtirdik, shu pulni bersa keyin beramiz, deb berishmasdi. Ularning pasportni bermaslikka haqi bormi? Fuqaro o'z pasportini to'lov yoki biror majburiyatni bajarish evaziga garovga qo'yishi mumkinmi?"*

Pasportni to'lanishi kerak bo'lgan pul miqdorining o'rniga vaqtincha garovga qo'yish taqiqlangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 223.1-moddasiga ko'ra, fuqarolarning o'z pasportidan, shuningdek, boshqa fuqarolar pasportidan ham g'arazli maqsadlarda foydalanishi taqiqlanadi. Buning uchun BHM (Bazaviy hisoblash miqdori)ning 10 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlanadi.

**Demak, ushbu holatda fuqaroning o'z pasportini garovga qo'yishi noto'g'ri bo'lgan. U bu haqida ichki ishlar organlariga xabar berishi va belgilangan miqdordagi jarimani to'lab, do'kon egasidan pasportini qaytarib olishda yordam berishlarini so'rashi kerak.**

### 3-savol

#### **Vaqtincha propiskaga qo'ysam bo'ladimi?**

*"Akam hozir Surxondaryoda ijaraga yer olib ishlayapti. Pasport nusxasini olib borib, vaqtincha propiskaga qo'ysam bo'ladimi?"*

Doimiy va vaqtinchalik propiskaga qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli PF-5984-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 1049-son qarorida keltirib o'tilgan. Unga ko'ra, yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarga, asosan, fuqarolarni doimiy yoki vaqtinchalik propiskaga qo'yish uchun pasport nusxasi taqdim etilishi haqida so'z mavjud emas, aksincha, pasport asli taqdim etilishi normalangan.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, fuqarolar yangi yashash joyiga kelgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari (keyingi

o'rinlarda – MvaFRB), Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda – YIDXP) orqali doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tishlari shart.

Fuqarolar doimiy yoki vaqtinchalik propiskaga qo'yish uchun **M va FRBga murojaat etganda**, quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- mulkdor va doimiy ro'yxatga olinayotgan fuqaroning pasporti yoki ID-kartasi;
- 16 yoshga to'lmagan shaxslar uchun – tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchisining shaxsiy guvohnomasi (kazarmalar va kemalardan tashqarida yashaydigan harbiy xizmatchilar uchun);
- harbiy hisob hujjatlari;
- nizomga muvofiq, mulkdorning turar joy maydoni berish to'g'risidagi arizasi (roziligi) yoxud notarial tasdiqlangan arizasi (roziligi), agar shaxsan o'zi berish imkoni mavjud bo'lmasa.

Fuqarolar doimiy yoki vaqtinchalik propiskaga qo'yish uchun **YIDXPga murojaat etganda**, quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- mulkdor va doimiy ro'yxatga olinayotgan fuqaroning pasporti yoki ID-kartasi;
- 16 yoshga to'lmagan shaxslar uchun – tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchisining shaxsiy guvohnomasi (kazarmalar va kemalardan tashqarida yashaydigan harbiy xizmatchilar uchun);
- harbiy hisob hujjatlari.

Propiska masalasi bo'yicha murojaat etilganda, fuqarolar **O'zbekiston Respublikasi «Davlat boji to'g'risida»**gi qonunda belgilangan miqdordagi summani to'lashlari shart.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5984-son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1049-son qarori.

#### **4-savol**

##### ***Shaxsiy hayot daxlsizligi himoya qilinadimi?***

*“Bir fuqaro turmush o'rtog'im bilan tushgan rasmlarini o'z telegrami profiliga joylab, bu mening shaxsiy rasmim, telegram ham o'zimniki, xohlagan rasmni qo'yaman, deb o'chirmayapti. Shaxsiy deganda o'zi va oila a'zolari tushuniladi. Ushbu fuqaro haqorati uchun 2019-yil 5 sutka, yaqinda 8-fevralda esa 15 sutkaga qamaldi. Maqsadim fuqaroni jazolash emas, shaxsiy hayot daxlsizligi insonning ozodligi, sha'ni-yu qadr-qimmatini bebaho va daxlsiz qadriyat sifatida ulug'lanadi. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquq va erkinliklari qonunan muhofaza qilinadi.”*

“Bir fuqaro turmush o'rtog'im bilan tushgan rasmlarini o'z telegrami profiliga joylab, bu mening shaxsiy rasmim, telegram ham o'zimniki, xohlagan rasmni qo'yaman, deb o'chirmayapti. Shaxsiy deganda o'zi va oila a'zolari tushuniladi. Ushbu fuqaro haqorati uchun 2019-yil 5 sutka, yaqinda 8-fevralda esa 15 sutkaga qamaldi. Maqsadim fuqaroni jazolash emas, shaxsiy hayot daxlsizligi insonning ozodligi, sha'ni-yu qadr-qimmatini bebaho va daxlsiz qadriyat sifatida ulug'lanadi. Shunga ko'ra, fuqarolarning huquq va erkinliklari qonunan muhofaza qilinadi.”

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda 439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi qonunining 13-moddasiga asosan, jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek, shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mazkur qilmish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi 46<sup>1</sup>-moddasi yoki O'zbekiston Respublikasining jinoyat Kodeksi 141<sup>2</sup>-moddasi bilan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, sizning ruxsatingizsiz shaxsiy rasingizni saqlashga haqqi yo'q.

#### **5-savol**

##### ***Xorijga chiqish uchun biometrik pasporti qanday olinadi?***

*“Chet elga chiqish uchun pasportni vaqtincha yashash joyidan olsa bo'ladimi? Vizani-chi? Xorijga chiqish uchun biometrik pasport qayerdan olinadi?”*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda PQ-4079-sonli qarorining 17-bandi (<https://lex.uz/ru/docs/-4162591#-4165633>)ga muvofiq, fuqarolar xorijga chiqish biometrik pasportini olish uchun doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan joylaridagi ma'lumotlarni yig'ish punkti yoxud konsullik ro'yxatiga olingan ma'lumotlarni yig'ish punkti (pasportniy stol)ga murojaat qilishlari mumkin.

#### **6-savol**

##### ***Qamoqqa olish va qamoqda ushlab turish tartibi qanday?***

*“Qamoqqa olish yoki ushlab turish tartibi haqida atroflicha ma'lumot bersangiz. Qamoqqa olish uchun faqat sud va prokuror qarori kerakmi? IIB xodimlari ham qamoqqa olish yoki ushlab turish huquqiga egami?”*

Qamoqqa olish va ushlab turish tartibi bir-biridan farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 220-moddasiga ko'ra, Ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishining, dalillarni yashirishi yoki yo'q qilib yuborishining oldini olish maqsadida qisqa muddatga ozodlikdan mahrum qilishdan iboratdir.

*Ushlab turish jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham, ish qo'zg'atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ushlab turishga faqat surishtiruvchining, tergovchining yoki prokurorning qaroriga binoan yo'l qo'yiladi.*

Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin:

- shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- jinoyat shohidlari, shu jumladan, jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar gumon qilinuvchini ushlab turish huquqiga ega bo'lgan shaxslar quyidagilar:

- ichki ishlar organining xodimi;
- tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergovni amalga oshiruvchi boshqa organning xodimi;
- shuningdek, muomalaga layoqatli har qanday shaxs shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa, uni ushlab turish va yaqin oradagi ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelishga haqlidir.



Jinoyat-protsessual kodeksining 223-moddasiga ko'ra, ushlab turilgan shaxslar quyidagilar:

- deputatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil;
- sudyalalar va prokurorlar.

Yuqoridagi shaxslar ushlab turilishi hamda ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas. Mazkur taqiq shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushgan holatda tatbiq etilmaydi.

Ushlab turish muddati ushlangan ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilgan paytdan e'tiboran ko'pi bilan qirq sakkiz soatni tashkil etishi mumkin.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan zarur va yetarli asoslar taqdim etilganda, ushlab turish sudning qarori bilan qo'shimcha ravishda qirq sakkiz soatga uzaytirilishi mumkin.

*Alohida hollarda, ushlab turilgan gumon qilinuvchiga nisbatan sud tomonidan qamoqqa olish, uy qamog'i yoki garov tarzidagi ehtiyot choralarini qo'llanilishi mumkin. Bunda gumon qilinuvchiga u ushlangan kundan e'tiboran o'n kun ichida ayblov e'lon qilinishi kerak. Aks holda, ehtiyot chorasi bekor qilinadi va shaxs qamoqdan yoki uy qamog'idan ozod etiladi, garov esa garovga qo'yuvchiga qaytariladi.*

Jinoyat-protsessual kodeksining 228-moddasida ushlab turilganlarni saqlash joylari haqida aytib o'tilgan. Unga ko'ra, ushlangan shaxs ichki ishlar organi yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga keltirilganidan so'ng u ozodlikdan mahrum etish joyi hisoblanmagan xizmat binolarida saqlanadi yoki vaqtincha saqlash hibsonasi kamerasiga, ushlab turilgan harbiy xizmatchi esa gauptvaxtaga joylashtiriladi.

Ushlab turilganlarni ayrim joylarda istisno tarzida maxsus moslashtirilgan binolarda, dengiz va daryo kemalarida esa maxsus ajratilgan kayutalarda saqlashga yo'l qo'yiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida ushlab turilganlarni saqlash uchun maxsus kameralar jihozlanadi.

Ushlab turilganlarni qamoqda saqlash joylarida saqlash tartibi va shart-sharoitlari qonunda belgilanadi.

### **Qamoqqa olish**

Qamoqqa olish ehtiyot chorasi sifatida Jinoyat kodeksida *uch yildan ortiq* muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida ***besh yildan ortiq muddatga*** ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llaniladi.

Alohida hollarda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi ***uch yildan ortiq bo'lmagan*** muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun ***besh yildan ortiq bo'lmagan*** muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda qo'llanilishi mumkin:

- ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;
- ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;
- ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;

- ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganida;
- jinoyat ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida.

#### **7-savol**

##### ***Davlatdan qarzdorlik qanday undiriladi?***

*“Mening turmush o'rtog'im qurilish ishi bo'yicha nohaq kamomad sabab qamaldi. Kamomad miqdori 530 mln so'm. Savolim shuki, turmush o'rtog'imning nomida bitta bitmagan uy bor. O'sha uyni davlat tortib olib qo'yishi mumkinmi?”*

Ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qarzdor jismoniy shaxsga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan yoki uning umumiy mulkdagi ulushi bo'lgan yagona uyga (kvartiraga), agar qarzdor va (yoki) uning oila a'zolari unda doimiy ravishda yashayotgan bo'lsa qaratilmaydi, ijro hujjatida undiruvni mazkur uyga (kvartiraga) qaratish nazarda tutilgan yoxud ushbu mol-mulk majburiyat bo'yicha garov narsasi bo'lgan hollar bundan mustasno. Undiruv boshqa uylarga (kvartiralarga), ularda qarzdor va (yoki) uning oila a'zolari yoxud o'zga shaxslar doimiy ravishda yashab turgan-turmaganligidan qat'i nazar, qaratilishi mumkin. Undiruvchi yoki davlat ijrochisining arizasiga ko'ra, undiruv sud tomonidan qarzdorning yagona uyiga (kvartirasiga) yoxud uy hududidagi alohida turgan binoga yoki uyni muayyan qismiga, agar sud uyni (kvartirani), shu jumladan, unga tutash hududni qismlarga bo'lish mumkin, qarzdor tasarrufida qolgan qismi esa qarzdor va uning oila a'zolari normal turmush kechirishi uchun yetarli deb topgan taqdirda, qaratilishi mumkin.

#### **8-savol**

##### ***Agar insonning shaxsiy yozishmalari boshqa inson tomonidan o'g'irlansa va oshkor qilinsa, unga qanday chora qo'llanilishi mumkin?***

Shaxsiy yozishma (so'zlashuv)lar sirini oshkor qilish taqiqlangan va buning uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida hech kim qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari bironing yozishmalari va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning ushbu moddasi “Aloqa to'g'risida”gi qonunning 10-moddasida ham mustahkamlangan.

Demak, shaxsiy yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilish Konstitutsiya normalarini buzish hisoblanadi.

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida”gi qonunning 13-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot toifasiga kirishi, jismoniy shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefondagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tarqatish va undan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Ushbu normalarni buzganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46.2-moddasiga asosan, shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish, fuqarolarga BHMning uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu holat ma'muriy jazo qo'llangandan keyin sodir etilsa, BHMning 50 baravarigacha jarima 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum etish yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi (Jinoyat kodeksi 141.2-modda).

Jinoyat kodeksining 143-moddasida xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik (BHMning 25 baravarigacha miqdorda jarima, 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum etish, 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari) belgilangan.

## 9-savol

### ***Yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun chiqarilgan qaror ustidan sudga murojaat qilish mumkinmi?***

*“Men ikki yil oldin haydovchilik guvohnomamni oldirganman. 10 baravar jarima yozilgan. Hozirda men 2-guruh nogironiman, belgilangan jarimani to'lashga imkoniyatim yo'q. Men sudga o'tkazib beringlar, desam rad etishdi. Haydovchilik guvohnomamni 2 yildan keyin ham sudga o'tkazsa bo'ladimi? Menga qanday imtiyozlar bor?”*

*Ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkinmi va qay tartibda? Ushbu holatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan imtiyozlar mavjudmi?”*

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining «Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning VI bandiga ko'ra, Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi, shuningdek, ularning qonuniy vakillari va advokat tomonidan shikoyat berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 33-moddasiga muvofiq, Sud ma'muriy jazo chorasini qo'llayotganda, javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda, sabablar va asoslarni ko'rsatib, ushbu Kodeksning maxsus qismidagi moddalarning sanksiyasida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham kamroq jazo yoki ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa yanada yengil jazo chorasini qo'llashi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiquvchi boshqa organ (mansabdor shaxs) javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda, yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash to'g'risidagi masalani hal etish uchun ishni ko'rib chiqib, huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomada shaxsning ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi yoki unga nisbatan yengilroq ma'muriy jazo chorasi qo'llash kerakligining sabablari va asoslari bayon etiladi.

Sud huquqbuzarlikning kam ahamiyatliligi sababli huquqbuzarni ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish to'g'risidagi yoki yengilroq ma'muriy jazo chorasini qo'llash haqidagi taqdimnomani ko'rib chiqib, ma'muriy jazo qo'llanish yoki ishni yuritishni tugatish to'g'risida qaror chiqaradi (MJtK 310-modda).

Bundan tashqari, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida shu qarorning nusxasi olingan kundan e'tiboran o'n kun ichida shikoyat berilishi mumkin, bundan sud qarori mustasno. Mazkur muddat uzrli sabablar bilan o'tkazilib yuborilgan taqdirda, bu muddat shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan qayta tiklanishi mumkin (MJtK 316-modda).

Demak, MJtKning 316-moddasida ko'rsatib o'tilgan muddatlar uzrli sabablar bilan o'tkazib yuborilgan deb topilgan taqdirdagina sizning ishingiz sud tartibida ko'rib chiqilishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishi sudda ko'rib chiqilayotganda, ularga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilish paytida ularning ijtimoiy ahvoli inobatga olinishi zarur. Bunday holatda sud ma'muriy jazo qo'llanish yoki ishni yuritishni tugatish to'g'risida qaror chiqaradi.

#### 10-savol

***JKning 70-moddasi haqida tushuncha bering. Bu modda bilan shaxs javobgarlikdan ozod qilinsa, keyinchalik uning oila a'zolari faoliyatiga ta'siri qanday?***

70-modda. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish:

Jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi, deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.

Ya'ni agar hukm chiqariladigan vaqtga kelib, qilmish ijtimoiy xavfliligini yo'qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolsa, sud jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqaradi.

«Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorining (<https://www.lex.uz/docs/2793078>) 2-bandiga asosan, jinoyat qonunida shaxs sudlanmagan hisoblanadigan hollar mavjud. Jumladan, quyidagi holda shaxs sudlanmagan hisoblanadi, agar unga nisbatan jazo tayinlanmagan holda ayblov hukmi chiqarilgan bo'lsa (Jinoyat Kodeksining 70-moddasida ko'rsatilgan holat).

Ushbu turdagi jazodan ozod qilish shartsizdir, ya'ni ozod qilingan kishining xatti-harakati uchun maxsus talablar mavjud emas. Ushbu asosda jazodan ozod qilingan shaxs, jazoni ijro etish muddati cheklangan bo'lsa, sudlanganligi yo'q deb tan olinadi.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 70-modda va Jinoyat-protsessual kodeksi 463-moddasi uchinchi qismining 3-bandi.

#### 11-savol

***Sudyaning xolisligiga shubham borligi sababli uning ishni ko'rishiga e'tiroz bildirishim mumkinmi?***

Sudya va sudning xolisligi quyidagicha belgilanadi:

Sudyalar o'z vakolatlari doirasida ishlarni ko'rish chog'ida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga so'zsiz rioya etishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulki, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi, beg'araz va adolatli bo'lishi shart.

Quyidagi hollarda sudya, shuningdek, xalq maslahatchisi, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, sud majlisining kotibi jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishga haqli emas va uni rad qilish lozim, basharti:

- 1) u shu ish bo'yicha jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, guvoh, himoyachi sifatida, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining qonuniy vakili yoki jabrlanuvchining, fuqaroviy da'vogarning, fuqaroviy javobgarning vakili sifatida ishtirok etayotgan yoki ilgari ishtirok etgan bo'lsa;
- 2) u ushbu ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan biror mansabdor shaxsning yoki ushbu modda birinchi qismining 1-bandida ko'rsatilgan o'zga shaxslarning qarindoshi bo'lsa;
- 3) uning xolisligiga va beg'arazligiga shubha tug'diradigan boshqa holatlar mavjud bo'lsa. Birinchi, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ishni ko'rishda ishtirok etgan sudya

o'z ishtirokida chiqarilgan hukm, ajrim bekor qilinganidan keyin o'sha ishni ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini apellyatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

Jinoyat ishini kassatsiya instansiyasi sudida ko'rishda ishtirok etgan sudya shu jinoyat ishini birinchi instansiya yoki apellyatsiya instansiyasi sudida ko'rishda yoxud ishni kassatsiya tartibida takroran ko'rishda ishtirok eta olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ishlarni birinchi instansiya sudi sifatida va nazorat tartibida ko'radi. U o'zi birinchi instansiya sifatida ko'rgan ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest bildirish) huquqiga ega bo'lgan shaxslarning xohishiga ko'ra apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida ko'rishni mumkin. Apellyatsiya tartibida ko'rilgan ish kassatsiya tartibida ko'rilmasligi kerak.

**Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur sudyani rad qilish imkoniyati mavjud.**

## **12-savol**

***Mahalla raisi aybdor deb topilmasidan oldin uni lavozimidan ozod etish mumkinmi?***

*“Mahalla raisining ishi Jinoyat kodeksining 167, 168, 209, 210-moddalari bilan tergovda bo'lsa, uning o'rniga boshqa mahalla raisi tayinlansa bo'ladimi? Tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash xodimlari suddan keyin rais saylanadi, deyishmoqda. Bu javob qanchalik to'g'ri?”*

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 24-moddasiga muvofiq, fuqarolar yig'ini raisining (oqsoqolining) vakolatlari unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda muddatidan ilgari tugatilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga binoan, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi.

Mahalla raisining qilmishlari sud tomonidan qonuniy tartibda ko'rib chiqilib, unga nisbatan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganidan so'nggina mahalla raisining vakolatlari muddatidan oldin tugatiladi.

Shuningdek, JPKning 29-bobiga asosan, basharti ayblanuvchi, sudlanuvchi o'z ish joyida qolsa, jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga yoki jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning o'rnini qoplashga to'sqinlik qiladi yoxud jinoyat faoliyatini davom ettiradi, deb hisoblashga yetarli asoslar mavjud bo'lsa, ular lavozimidan chetlashtirilishi mumkin.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish uchun asoslar mavjud bo'lganda prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risida iltimosnoma qo'zg'atish haqida mazkur protsessual majburlov chorasini qo'llash asoslarini bayon etgan holda qaror chiqaradi.

Ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish to'g'risidagi iltimosnoma surishtiruv yoki dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi tomonidan, mazkur sudlarning sudyasi bo'lmagan yoxud ayblanuvchini lavozimidan chetlashtirish

tó'g'risidagi materialni ko'rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko'rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

### **13-savol**

#### **Rasmiy hujjatlarni sohtalashtirish qanday javobgarlikga sabab bo'ladi?**

*“O'rinbosar rahbardan ruxsatsiz muhrdan foydalansa yoki rahbar ish faoliyatida bo'lgan davrda so'ramasdan imzo qo'ysa, unga nisbatan qanday jazo qo'llaniladi?”*

Jinoyat kodeksining 228-moddasi (<https://www.lex.uz/acts/111453>)ga ko'ra, soxtalashtiruvchining o'zi yoki boshqa shaxs foydalanishi maqsadida muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlashi yoki rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirishi yoxud bunday hujjatlarni sotishi, shunday maqsadlarda korxonalar, muassasa yoki tashkilotning qalbaki shtamlari, muhrlari, blankalarini tayyorlash yoxud sotish – bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

### **14-savol**

#### **Apellyatsiya kimlar tomonidan yoziladi? Apellyatsiya yozilgan vaqtdan boshlab qancha vaqtda ko'rib chiqiladi?**

Jinoyat protsessual kodeksi (<https://www.lex.uz/docs/111460#5232695>)ning 497<sup>3</sup>- moddasiga binoan, qonuniy kuchga kirmagan hukmlar ustidan apellyatsiya tartibida quyidagicha shikoyat berilishi va protest bildirilishi mumkin:

- 1) jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlarining hukmi ustidan – Qoraqalpog'iston Respublikasi sudiga, viloyatlar, Toshkent shahar sudiga;
- 2) hududiy harbiy sudlarning hukmi ustidan – O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudiga;
- 3) Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyat, Toshkent shahar sudining, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining hukmi ustidan – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining hukmi ustidan – mazkur sudning Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga.

Apellyatsiya shikoyatlari va protestlari hukm chiqargan sud orqali beriladi.

Shuningdek, mazkur kodeksning 497 prim 2-moddasiga ko'ra, mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga haqli hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur kodeksning 497 prim 2-moddasiga ko'ra, mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga haqli hisoblanadi.

#### **Apellyatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishini ko'rish tartibi qanday?**

Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi hamda qanday jinoyat ishi va kimning apellyatsiya shikoyati, protesti bo'yicha ko'rilishini e'lon qiladi. Raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qiladi, prokurorning, himoyachining, sud majlisi kotibining va, agar sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, tarjimonning familiyasi, ismi va otasining ismini ma'lum qiladi.

Raislik qiluvchi sud majlisini ochadi hamda qanday jinoyat ishi va kimning apellyatsiya shikoyati, protesti bo'yicha ko'rilishini e'lon qiladi. Raislik qiluvchi sud tarkibini e'lon qiladi, prokurorning, himoyachining, sud

majlisi kotibining va, agar sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, tarjimonning familiyasi, ismi va otasining ismini ma'lum qiladi.

Apellyatsiya instansiyasi sudi majlisining joyi, sanasi va vaqti to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi jinoyat ishini ko'rishga monelik qilmaydi, bundan sud majlisida ishtirok etishi shart bo'lgan shaxslar mustasno. Raislik qiluvchi hozir bo'lgan jinoyat protsessi ishtirokchilariga ularning huquqlarini tushuntiradi va ularda rad qilishga oid arzlari va iltimosnomalar bor-yoqligini, apellyatsiya shikoyatida, protestida bayon etilgan iltimoslarni quvvatlashi yoki quvvatlamasligini aniqlaydi. Bunday iltimoslar mavjud bo'lganda, sud ular bo'yicha ajrim chiqaradi. Sud muhokamasi sudyalardan birining ma'ruzasi bilan boshlanadi. U birinchi instansiya sudi hukmining yoki ajrimining mazmunini, apellyatsiya shikoyatining, protestining mazmunini va unga qarshi e'tirozlarning mohiyatini qisqacha bayon etadi. Raislik qiluvchi apellyatsiya shikoyati bergan shaxsga, apellyatsiya shikoyati va protesti kimga nisbatan berilgan bo'lsa, o'sha shaxsga, ularning himoyachilari va vakillariga, so'ngra esa prokurorga so'z beradi. Ish bo'yicha bir nechta shikoyat mavjud bo'lgan taqdirda, so'zga chiqish navbati sud tomonidan taraflarning fikri inobatga olingan holda belgilanadi. Agar berilgan apellyatsiya shikoyatlari orasida prokurorning apellyatsiya protesti bo'lsa, so'z birinchi navbatda unga beriladi.

Sud taraflarning so'zlarini eshitib, hukmning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini lozim darajada tekshirib ko'rishni ta'minlash zaruratidan kelib chiqib, bevosita sud majlisida tekshiriladigan dalillar hajmini aniqlash to'g'risida; sud majlisiga sudlanuvchini, jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ekspertlar va zarurat bo'lsa, boshqa shaxslarni chaqirish haqida; sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini saqlab qolish, tanlash, bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Shundan keyin sud sud majlisiga chaqirilgan sudlanuvchini, guvohlarni, jabrlanuvchilarni so'roq qilish yo'li bilan dalillarni tekshirishga, shuningdek, taraflarning iltimosi bo'yicha hamda o'zining tashabbusi bilan hujjatlarni, bayonnomalarni va ishga oid boshqa materiallarni o'qib eshittirishga kirishadi. Dalillarni tekshirish tartibi taraflarning fikrlari inobatga olingan holda sud tomonidan belgilanadi. Taraflar apellyatsiya instansiyasi sudiga apellyatsiya shikoyatida, protestida keltirilgan vajlarni tasdiqlab yoki inkor etib, qo'shimcha materiallar taqdim etishga haqli.

Birinchi instansiya sudida so'roq qilingan guvohlar, agar sud buni zarur deb topsa, apellyatsiya instansiyasi sudida so'roq qilinadilar.

Taraflarning dalillarni, shu jumladan, birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilmagan dalillarni tekshirish to'g'risidagi va sud majlisiga guvohlar, ekspertlarni hamda boshqa shaxslarni chaqirish to'g'risidagi iltimosnomalari sud tomonidan hal etiladi. Bunda sud iltimosnomani qanoatlantirishni faqat u birinchi instansiya sudi tomonidan qanoatlantirilmaganligiga asoslanib rad etishga haqli emas.

Birinchi instansiya sudi tomonidan tekshirilmagan dalillar (yangi dalillar) sud tomonidan qabul qilinadi. Bunda ularni tekshirish to'g'risida iltimosnoma bergan shaxs o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bu dalillarni birinchi instansiya sudiga taqdim etishga imkoniyati bo'lmaganligini asoslab berishi kerak.

## **15-savol**

### ***Jazoni yengillashtiruvchi holatlar qaysilar?***

Jinoyat kodeksining 55-moddasiga ko'ra quyidagi holatlar jazoni yengillashtiruvchi holatlar deb topiladi:

- a) aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish;
- b) yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda bartaraf qilish;
- v) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;
- g) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;

- d) jabrlanuvchining zoʻrluk, ogʻir haqorat yoki boshqacha gʻayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish;
- e) zaruriy mudofaaning, oxirgi zaruratning asosli chegarasidan chetga chiqib jinoyat sodir etish, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlashda, kasb yoki xoʻjalik faoliyatiga bogʻliq boʻlgan asosli tavakkalchilikda zarar yetkazish;
- j) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi;
- z) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;
- i) jabrlanuvchining gʻayriqonuniy yoki axloqqa zid xulq-atvori taʼsiri ostida jinoyat sodir etish.

Jazo tayinlashda sud ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa holatlarni ham yengillashtiruvchi holat deb topishi mumkin.

### **16-savol**

#### ***Fuqaro aliment toʻlay olmagan sababli unga nisbatan jinoiy ish ochiladimi?***

*“Alimentni toʻlay olmay maʼmuriy javobgarlikka tortilganman. Endi jinoiy javobgarlikka tortishmoqchi. Lekin qarzni toʻlamoqchiman.”*

Quyidagilar shaxsni JK 122-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortish shartlari hisoblanadi:

- moddiy yordamga muhtoj boʻlgan voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxsni moddiy taʼminlash haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki sud buyrugʻi mavjudligi;
- bunday shaxsni moddiy taʼminlashdan boʻyin tovlaganlik uchun shaxsga nisbatan muqaddam maʼmuriy jazo chorasi qoʻllanilganligi;
- ushbu mablagʻ jami boʻlib ikki oydan ortiq muddat mobaynida toʻlanmasligi.

Qonunga koʻra, agar shaxs aliment majburiyatlari boʻyicha qarzdorlikni toʻliq toʻlasa, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.

***Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, agar siz aliment majburiyatlari boʻyicha qarzdorlikni toʻliq toʻlagan boʻlsangiz, javobgarlikdan ozod qilinasis.***

### **17-savol**

#### ***Tergov vaqti choʻzilib ketsa, fuqaro shikoyat qila oladimi?***

*“Bugun meni tergovga chaqirishdi. Lekin soʻroq vaqti 5 soatga choʻzilib ketdi. Buning uchun shikoyat qilishga haqlimanmi?”*

Sizning vaziyatingizga huquqiy baho berish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasiga yuzlanamiz.

Unga koʻra, soʻroqning umumiy davom etish vaqti bir kunda sakkiz soatdan oshmasligi lozim.

Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus bu hisobga kirmaydi.

Xulosa qilish mumkinki, ushbu vaziyatda sizning shikoyatingiz oʻrinsiz. Tergovchi tomonidan protsessual muddatlarga amal qilingan.



## 18-savol

### ***Jinoyat protsessual qonunchiligiga kiritilgan oxirgi o'zgartirishlar haqida ma'lumot bera olasizmi?***

*Jinoyat-protsessual kodeksiga oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tegishli qonunlar asosida 2021-yilning 12-yanvar va 18-fevralda amalga oshirildi.*

2021-yilning 2-yanvarida "Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun (O'RB-664-son) Prezident tomonidan imzolandi.

Ushbu qonunga ko'ra, Jinoyat-protsessual kodeksiga quyidagi o'zgarishlar kiritildi:

1. Jinoyat ishlarini nazorat tartibida ko'rish instansiyasi bekor qilindi;
2. Surishtiruvchi, tergovchi, sud majlisi kotibi ma'lum bir ishda qatnashganidan so'ng keyinchalik uni qayta ko'rib chiqish uchun surishtiruvni, dastlabki tergovni yuritishda takroran ishtirok etishi, shuningdek, sud majlisi bayonnomasini yuritishi mumkin.
3. Endi sudda jinoyat ishini muhokama qilish faqat ayblanuvchilarga nisbatan va e'lon qilingan ayblov bo'yicha olib boriladi.
4. Sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash endilikda sudlanuvchining, uning himoyachisining, qonuniy vakilining iltimosnomasiga ko'ra ham amalga oshiriladi (ilgari ushbu tartib faqat prokurorning yoki jabrlanuvchining, uning vakilining iltimosnomasiga ko'ra amalga oshirilgan).

2021-yilning 18-fevralida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun Prezident tomonidan imzolandi (O'RB-675).

Ushbu qonun bilan Jinoyat protsessual kodeksiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

1. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv – o'ta og'ir jinoyat hisoblanmaydigan jinoyatlar bo'yicha aybga iqror bo'lgan, jinoyatni ochishga ko'maklashgan va zararni bartaraf etgan *gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan prokuror bilan tuziladigan kelishuv.*
2. *Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv* tuzilgan jinoyatlar bo'yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori kodeksning maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi kerakligi belgilab qo'yildi.
3. *Ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish* ham belgilandi. Unga ko'ra, ko'rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo'yish guvoh va jabrlanuvchini ishni sudga qadar yuritish bosqichida *prokurorning iltimosiga ko'ra so'roq qilish bo'lib, u sud tomonidan amalga oshiriladi.*
4. Guvoh va jabrlanuvchini obyektiv sabablarga ko'ra keyinchalik so'roq qilish mumkin bo'lmay qoladigan hollarda ularning ko'rsatuvlari oldindan mustahkamlab qo'yilishi mumkin.
5. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv – jinoyat ishini to'xtatib turish, tugatish, birlashtirish, ayblov dalolatnomasi yoki xulosasini, tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash to'g'risidagi qarorni prokurorga yuborish hamda nomaqbul dalillarni chiqarib tashlash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

*Bunda dastlabki eshituvni o'tkazish davomiyligi 10 sutkadan oshmasligi kerak.*

Jinoyat ishida himoyachining ishtirok etish tartibi:

- shaxs amalda ushlangan yoki uni ushlab bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri yakunlangan paytdan boshlab u bilan bog'liq *protsessual harakatlar amalga oshirilgunga qadar himoyachi bilan xoli uchrashishi ta'minlanadi;*
- tezkor-qidiruv faoliyatni amalga oshiruvchi organlar tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchidan *arizalar, tushuntirishlar va ko'rsatuvlar olish surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki*

*sudyaning yozma ruxsatiga asosan faqat himoyachi ishtirokida amalga oshiriladi (himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno).*

*Himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlar toifasiga quyidagilar kiritildi:*

- dastlabki eshituv o'tkazilayotgan ishlar;
- o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar;
- shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasi ko'rib chiqilayotgan;
- aybiga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar.

*Ushlab turish muddati shaxs amalda ushlangan paytdan e'tiboran ko'pi bilan 48 soatni tashkil etadi (ilgari ushbu muddat shaxs ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan vaqtdan boshlab hisoblangan).*

**Asos:** *“Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun (12.01.2021);*

*“O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun (18.02.2021).*

## **19-savol**

***Jinoiy sherikchilikning kriteriyalari va yosh farzandi borlarga jazo yumshatilishi mumkinmi?***

*“Jiyanim ko'chada do'stlari bilan bironing pulini olib qo'yishgan ekan. Lekin jiyanim ular bilan urishmagan va pullarni ham olmagan. Faqat do'stlari bilan birga bo'lgan. Lekin endi jiyanimni ham qamashmoqchi. Shu adolatdanmi? Hali yosh oila o'zi, farzandi hali 1 ga to'lmadi. Qamalib qolsa, oilasi, ota-onasining ahvoli ne kechadi? Nima qilsak bo'ladi? Iltimos, qonuniy maslahat bersangiz.”*

Jinoyat Kodeksining 28-moddasiga asosan, jinoyat ishtirokchilariga quyidagilar kiradi:

- bajaruvchi;
- tashkilotchi;
- dalolatchi;
- yordamchilar.

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi (30-modda).

Oldindan til biriktirgan jinoiy guruh tashkilotchilari hamda a'zolari tayyorgarlik ko'rilishi yoki sodir etilishida o'zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladi.

Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo'ladi.

Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi.

Bizda jinoyat ishtirokchilarining tushuntirish xatlari, ko'rsatmalari, voqeani ko'zdan kechirish bayonnomalari va boshqa tergov hujjatlari mavjud emas va bu vaziyatda holatga faqat sud baho bera oladi.

Sud sudlanuvchining yosh bolasi borligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida tan olishi ham mumkin.

**Asos:** Sudlar tomonidan «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining qarori.

## 20-savol

### ***Bir fuqaroga tuhmat qilish qanday jazo ko'riladi?***

*“Bir erkak bilan 8 yildan beri ishqiy munosabatda bo'lib kelar edim. Yaqinda u bilan oramizda tushunmovchilik yuzaga keldi va u menga baqirib ketdi. Kamiga haqoratlab tuhmat qildi. Bundan jahlim chiqib, oramizdagi munosabat haqida oilasiga aytdim. U esa meni haqorat qilib, tahdid qildi. Ushbu holatda kimga qanday chora ko'riladi?”*

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 40-moddasida berilgan, tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatsa, bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi JKning 139-moddasida ham tuhmat qilganlik uchun javobgarlik mavjud. Tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu jazo turlaridan biri qo'llanishi mumkin.

***Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biz bu holat haqida to'liq ma'lumotga ega emasmiz. Shu sababli bu holatni tergov organi hal qiladi. Ushbu holat bo'yicha o'sha sizga tahdid qilgan shaxs IIBga tushuntirish xati bergan bo'lsa, siz yana qaytib shu tuman yoki shahar IIBga ariza berishingiz mumkin. Sizga nisbatan qilingan bo'hton va tuhmatlar o'z isbotini topmasa, unga nisbatan tuhmat bo'yicha javobgarlik masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.***

## 21-savol

### ***Oilali erkak bilan nikohsiz ayolning ishqiy munosabatda bo'lishi javobgarlikka tortilishi mumkinmi?***

Savolingizda barcha tafsilotlar to'liq bayon etilmagan. Savolingizdan kelib chiqib, sizga quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Mazkur holatda ayolga nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha javobgarlik mavjud emas.

Ko'p xotimli bo'lish, ya'ni umumiy ro'zg'or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 126-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.

## 22-savol

### ***Fuqarolar orasida bir-biriga berilgan qarz qanday undiriladi?***

*“2020-yilning 27-aprel sanasida bir fuqaro mendan 10 kun ichida qaytarishini aytib 500 ming so'm qarz oldi. 3 oylik yolg'onlaridan keyin uchastka noziri oldida, kechikkani uchun yetkazilgan zararni qoplash uchun 1 haftada bir mln qilib qaytaraman, deb yozma ravishda tilxat yozib berdi. Bu ham yolg'on bo'lib chiqdi. 10 kunga deb olingan qarzni hozirga qadar qaytargani yo'q. Ishni sudga oshirmadim hali. Ushbu vaziyatda qanday yo'l tutishim kerak?”*

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 733-moddasiga asosan:

Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi, agar bu qarzning summasi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, oddiy yozma shaklda tuzilishi shart. Agar qarz oluvchining tilxati yoki unga qarz beruvchi tomonidan muayyan summa yoki muayyan miqdordagi ashyolar topshirilganligini tasdiqlaydigan boshqa hujjat mavjud bo'lsa, qarz shartnomasi yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi.

Agar qonun hujjatlarida yoki qarz shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarz oluvchi qarz summasini vaqtida qaytarmagan hollarda qarz qaytarib berilishi kerak bo'lgan kundan boshlab to u qarz beruvchiga qaytarib beriladigan kungacha bu summa yuzasidan foizlar to'lanishi kerak (FK 736-modda).

Bu vaziyatda siz qarzni undirish bo'yicha javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi tumanlararo fuqarolik sudiga ariza bilan murojaat qilishingiz kerak.

Da'vo arizangizda murojaat qilinayotgan sudning nomi, da'vogar sifatida o'zingiz va javobgar sifatida qarzdorning FISH, yashash manzillarini ko'rsatasiz.

Da'vo arizaning asosiy mazmun qismida esa:

- javobgarga qachon va qancha miqdorda qarz berganligingiz;
- o'rtada yozma tilxat yozib berganligi;
- qarzni qaytarish muddati;
- javobgar qarzni asossiz ravishda qaytarmayotganligi hamda u qarzni to'lashni paysalga solib kelayotganligi.

Da'vo arizangizning so'nggi – talab qismida javobgardan, ya'ni qarzdordan undirilishi lozim bo'lgan qarz summalari va uning foizlarini undirib berishni so'raysiz.

Shuningdek, da'vo arizangizga, albatta, tegishli hujjatlarni ilova qilishingiz va arizada ularning ro'yxatini ko'rsatishingiz kerak, bular:

- da'vo arizasidan qo'shimcha bir nusxa;
- tilxat;
- pasport nusxalari (iloji bo'lsa qarzdorniki ham);
- yashash joyidan ma'lumotnoma;
- davlat boji to'langanligi to'g'risida to'lov qog'ozi.

Sudning tegishli hisob-varag'iga "Davlat boji to'g'risida»gi qonunga asosan undiriladigan summaning 4 foizi miqdorida davlat boji to'lashingiz lozim.

### **23-savol**

***Talaba sudlansa-yu, lekin ozodlikdan mahrum etilmasa, uni talabalar safidan chetlatish qonuniymi?***

«Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizom»ga ko'ra, talaba oliy ta'lim muassasasidan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

- o'z xohishiga binoan;
- o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;
- salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);
- akademik o'zlashtira olmaganligi (qarzdorligi) uchun;
- o'quv intizomi va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;
- bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

- o'qish uchun belgilangan to'lovning o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);
- talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- vafot etganligi sababli.

***Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabaga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazo qo'llanilmaganligi sababli uni talabalar safidan chetlashtirish huquqiy asosga ega emas.***

## **24-savol**

***Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mumkinmi?***

O'z Res Jinoyat kodeksining 73-moddasiga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;
- b) og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini;
- v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

- a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;
- b) o'ta xavfli retsivistga;
- v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;
- g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

Jinoyat kodeksining 89-moddasiga ko'ra o'n sakkiz yoshga to'lmagan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga, ozodlikni cheklashga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish tartibi qo'llanilishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

- a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rttdan bir qismi;
- b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;
- v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.

## 25-savol

### **Advokat olish tartibi qanday?**

*“Jabrlanuvchining himoyachi olish tartibini tushuntirib bering. Ishda aybdorga advokat davlat tomonidan berildi. Jinoyat sudiga ariza orqali murojaat qilib, advokat olsa bo'ladimi?”*

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 49-moddasiga ko'ra, **himoyachi** gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxsdir. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko'ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Shu bilan birga, jabrlanuvchi ham o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish huquqiga ega hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 62-moddasiga ko'ra, **Jabrlanuvchining vakillari tariqasida**

- **advokatlar,**
- **vakil sifatida ishtirok etishga maxsus ruxsatnomalari bo'lgan shaxslar,**
- **surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori yoki sudning ajrimiga ko'ra ishda qatnashishga ruxsat berilgan yaqin qarindoshlar va boshqa shaxslar ishtirok etishlari mumkin.**

Jabrlanuvchining vakili ishda o'zi vakillik qilayotgan shaxs bilan birga, shuningdek uning o'rnida ham ishtirok etadi. Jabrlanuvchi ish yuritishning istalgan vaqtida vakildan voz kechishga yoki boshqa shaxsni vakil qilib olishga haqlidir.

Shu bilan bir qatorda, jabrlanuvchi o'z huquqlarini qonuniy vakillar orqali ham himoya qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksining 60-moddasiga muvofiq, ishda qonuniy vakil sifatida **ota-onalar, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar, voyaga yetmaganga yoki belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilgan ishtirokchiga homiylik qiluvchi muassasalar va tashkilotlarning vakillari** qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining va sudlanuvchining qonuniy vakili ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi bilan birga, jabrlanuvchining qonuniy vakili esa jabrlanuvchi bilan birga, shuningdek uning o'rnida ham ishtirok etadi.

Advokat olish masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, davlat har bir fuqaroning teng va erkin yuridik yordam olish huquqini ta'minlash uchun advokatura bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, advokat jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok eta oladi

O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonuniga ko'ra, advokat jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sudda himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok eta oladi.

Demak, yuqoridagilarga asoslanadigan bo'lsak, jabrlanuvchi o'z huquqlari va manfaatlarini vakillari orqali himoya qiladi. Advokat olish masalasida ham sudga murojaat qilib, advokat olish mumkin.

**Asos:** O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi  
O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi qonuni

## 26-savol

***Avtohalokat ro'y berishi natijasida qurbonlar bo'la turib, haydovchini aybi bo'lmasa, bu vaziyatga qanday chora ko'riladi?***

*“Avtohalokat yuz bergan. Haydovchi aybi bilan emas, ammo 14 yoshli voyaga yetmagan fuqaro haydovchi tomonidan shifoxonaga olib borilgandan so'ng 15 daqiqa ichida vafot etgan. Fuqaroning ota-onasi da'vo qilmayapti sababi jinoyatda haydovchining aybi yo'q. Bu holatda albatta, davlat da'vogar bo'ladi. Shu holatga nisbatan qonuniy izoh berishingizni iltimos qilaman.”*

**Jinoiy javobgarlikning asosi** - bu sodir qilingan qilmishda ***jinoyat tarkibining barcha alomatlari bir vaqtda mavjud bo'lishining*** talab etilishidir. Ushbu alomatlarga quyidagilar kiradi:

- ***Jinoyat obyekt*** - bu yerda 14 yoshli bolaning sog'lig'i, hayoti. Va ushbu avtohalokat natijasida u halok bo'ldi.
- ***Jinoyatning obyektiv tomoni*** - haydovchining o'z mashinasida bolani urib yuborishi.
- ***Jinoyat subyekt*** - qilmishni sodir etgan shaxs - haydovchi.
- ***Jinoyatning subyektiv tomoni*** - haydovchining bu yerda aybi mavjud bo'lishi kerak, ya'ni qilmish qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etiladi.

Agar haydovchi mazkur qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etgan bo'lmasa, unda haydovchining aybi bo'lmaydi hamda mazkur qilmishda jinoyat subyektiv tomoni bo'lmaganligi uchun bu qilmish jinoyat deb hisoblanmaydi va haydovchi javobgarlikka tortilmaydi.

Subyektiv tomon bo'lmish aybning ruhiy munosabat sifatidagi holatlari tafakkuriy va irodaviylik bo'lib, ular birgalikda aybni shakllantiradi. Aybsiz holda zarar yetkazishda – aybning tafakkuriy va irodaviy holatining mavjud bo'lmaganligi sababli jinoiy javobgarlik keltirib chiqarmaydi. Ya'ni bunda shaxs o'zi sodir etayotgan ijtimoiy xavfli qilmishining xavflilik xususiyatini anglab yetmaydi hamda shaxsda o'z harakatlarini boshqara olish imkoniyati bo'lmaydi.

Jinoyat kodeksi 24-moddasiga ko'ra, Agar shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglamagan, anglashi mumkin va lozim ham bo'lmagan yoki uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetmagan va ishning holatlariga ko'ra ko'zi yetishi mumkin va lozim ham bo'lmagan bo'lsa, bunday qilmish **aybsiz holda sodir etilgan deb topiladi.**

Demak, aybsiz holda sodir etilgan qilmishda jinoyiy javobgarlikka tortilmaydi. VA, o'z-o'zidan, ayb mavjud bo'lmaganligi uchun ham, mazkur qilmish jinoyat deb e'tirof etilmaydi.

**E'tibor bering:** bunda agar jinoyat ehtiyotsizlik orqasidan bo'lgan bo'lsa, ya'ni haydovchi ehtiyotkorlik chora-tadbirlariga ongli ravishda rioya etmagan holda bunday oqibatlar kelib chiqmasligiga asossiz ravishda umid qilgan bo'lsa yoki xavfli oqibatlarga ko'zi yetishi lozim va mumkin bo'lgan bo'lsa, u holda bu javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Masalan, haydovchi bolani yo'ldan o'tmoqchiligini ko'rdi va bola harakatangunigacha o'zi o'tib ketishiga asossiz ravishda ishonib harakatlanishda davom etgan bo'lsa, bu ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadi. Yoki haydovchi uzoqdan kelayotib svetoforda «sariq»ni ko'rdi va «qizil» yongunicha «o'tib ketaman» deb, tezlikni oshirdi, natijada «qizil» bo'ldi - piyodalar yo'ldan o'tayotganda bolani urib yubordi. Bunday hollarda haydovchiga nisbatan javobgarlik tayinlanadi.

**Farqi:** Aybsiz holda zarar yetkazishda haydovchi xulq-atvori ijtimoiy xavfli ekanligini anglamaydi va anglashi ham lozim bo'lmaydi. Oqibatni esa oldini olish imkoniyatining haqiqatda mavjud bo'lmasligida namoyon bo'ladi. Ya'ni bunda haydovchi yo'lda ketayotganda, bola birdan yo'l ustiga chiqib qolishi oqibatida avtohalokat sodir bo'lgan bo'lsa, haydovchi aybdor hisoblanmaydi.

**Asos:** Jinoyat kodeksi

#### 27-savol

***O'zganing sha'niga putur yetkazuvchi viderolik, foto va videolarni ijtimoiy tarmoqqa joylaganlik uchun qanday jazo hukmi qo'llaniladi?***

*“A ismli fuqaroga nisbatan N ismli fuqaro va uning tumush urtog'i U, hamda uning akasi O ismli shaxslar A ismli shaxsning sha'niga har xil tuhmatlar uyushtirib, og'zaki va yozma ravishda turli xil videoroliklar tayorlab ijtimoiy tarmoqqa asossiz joylab, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga murojaat qilib kelmoqda, natijada A ismli shaxsga nisbatan jamoatchilik fikrini buzib, uning obro'yiga jiddiy ziyon yetmoqda. Bu holatda A ismli shaxs nima qilishi kerak?”*

**Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 40-moddasiga ko'ra, tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.**

**Jinoyat kodeksi 139-moddasiga ko'ra, tuhmat qilish, ya'ni bila turib boshqa shaxsni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, – bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.**

Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali tuhmat qilish,

– bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

**Tuhmat:**

- a) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblab;
- b) og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan holda;



- v) *xavfli retsivist tomonidan;*
- g) *g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda qilinsa, – bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.*

Demak, tuhmat qilish yuqorida ko'rsatilgan javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, shaxsga nisbatan ommaviy axborot vositalarida yoxud Internet tarmoqlarida tuhmat qilish - 49 000 000 so'mdan 98 000 000 so'mgacha, agar ushbu qilmish og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa (jabrlanuvchi tuhmat tufayli o'z joniga qasd qilishi, sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazishi va h.k.) yoki g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda qilinsa, 122 500 000 so'mgacha jarima, uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi.

**Asos:** Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks  
Jinoyat kodeksi

### **28-savol**

***Bir fuqaroni noqonuniy spirtli ichimliklar savdosi bilan shugullanayotganini qaysi davlat organlariga murojaat qilnadi?***

*"Qo'shnim noqonuniy spirtli ichimliklar sotish bilan shug'ullanadi. 2 yildan beri tinchlik yo'q mahalla raisiga ham aytdik, foydasi bo'lmadi, maslahat bering iltimos."*

**Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 186-moddasiga** ko'ra, Fuqarolarning xonaki usulda hozirlanadigan o'tkir spirtli ichimliklarni sotish maqsadida tayyorlashi yoki sotishi – sotishga mo'ljallangan ashyolarni va tayyorlash vositalarini musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilmoqchi bo'lganlar, avvalo, yuridik shaxs tashkil etib, so'ng bunday mahsulotlarni sotish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasini olishlari kerak bo'ladi.

Demak, agar qo'shningiz ruxsatnomasi bo'lmasa, alkogol ichimliklarni noqonuniy ravishda tayyorlashi yoki sotishi mumkin emas, va yuqorida keltirilganidek, unga nisbatan javobgarlik choralari ko'riladi. Siz bunda qo'shningizning biror shu kabi nojo'ya harakatlarini ko'rgan, guvohi bo'lgan bo'lsangiz, bu bo'yicha shahar yoki tumaningizdagi huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlariga murojaat qilishingiz mumkin.

**Asos:** Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks

### **29-savol**

***Tergov xulosasida qo'yilgan moddadan norozi jabrlanuvchi qayerga murojaat qilishi kerak?***

Ushbu vaziyatda tergovchi yoki tergov boshqarmasining qaroridan, tergov xulosasidan norozi bo'lsangiz yoki noqonuniy xatti-harakat sodir qilganligiga ishonsangiz, uning ustidan agar tuman tergovchisi bo'lsa, tuman prokuraturasiga, shahar tergovchisi bo'lsa, shahar prokuraturasiga shikoyat qilishingiz mumkin. Shikoyatingizda tergovchining noqonuniy xatti-harakat sodir etganligiga asoslaringizni, agar guvohlar bo'lsa, ularning ham mavjudligini ilova qilishingiz mumkin.

### **30-savol**

***Avtomobilni qayta jihozlash hisoblanadimi?***

*“2014-yilda ishlab chiqarilgan Neksiya 2 avtomobilining oldi chiroqlariga qora 9%li plyonka yopishtirish uchun ruxsat bormi yoki bu qayta jihozlash hisoblanadimi?”*

**O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 127-moddasi** transport vositalarining tovush chiqaruvchi, yorituvchi va boshqa qurilmalaridan foydalanish, ularni o‘rnatish qoidalarini buzish holatlarini belgilaydi. Ushbu moddaning 1-qismiga ko‘ra, Tovush signalini sababsiz berish, transport vositalariga uni ishlab chiqargan korxonada nazarda tutmagan tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalarni o‘rnatish, xuddi shuningdek ularni o‘zgartirib o‘rnatish - bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi. Ya‘ni, ishlab chiqargan korxonada nazarda tutmagan yorituvchi qurilmalar o‘rnatilgan taqdirda ushbu harakat uchun ma‘muriy javobgarlik ko‘zda tutilgan. Yorituvchi qurilmani o‘zgartirmay uni qoraytirishga nisbatan esa ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida norma mavjud emas.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-noyabrdagi 758-son qarori bilan tasdiqlangan **“Avtomototransport vositasi konstruksiyasining va (yoki) uning qismini o‘zgartirish bilan bog‘liq faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnomani taqdim etish va avtotransport vositasini qayta jihozlashga ruxsatnoma berish tartibi to‘g‘risida”gi nizam** bilan tasdiqlangan “Avtomototransport vositasi qayta jihozlangan deb tan olinadigan o‘zgarishlar ro‘yxati”da (boshqalar qatorida) avtotransport vositasining konstruksiyasida ko‘zda tutilmagan yoritish chiroqlari (ksenon lampa) o‘rnatish bandi keltirilgan. Lekin ushbu band normasi, shuningdek ro‘yxatdagi boshqa bandlar, yoritish chiroqlarini (avtotransport vositasining konstruksiyasida ko‘zda tutilgan chiroqlar) qoraytirishga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Sizning holatingizdan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, avtotransport vositasining konstruksiyasida ko‘zda tutilgan yoritish chiroqlarini qoraytirish qayta jihozlash hisoblanmaydi hamda buni taqiqlovchi yoki aniq tartibga soluvchi norma qonunchilikda belgilanmagan.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi

Avtomototransport vositasi konstruksiyasining va (yoki) uning qismini o‘zgartirish bilan bog‘liq faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnomani taqdim etish va avtotransport vositasini qayta jihozlashga ruxsatnoma berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga ilova

### **31-savol**

#### ***Bosqinchilik bilan mulk undirish.***

*“Mulknı 5-6 kishi bo‘lib undirsa jinoyatmi. Bosqinchilik bilan mulk undirish uchun qonunda qanday jazo ko‘rsatilgan?”*

Jinoyat kodeksining 164-moddasiga ko‘ra, bosqinchilik, ya‘ni o‘zganing mol-mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, hayot yoki sog‘liq uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlık ishlatib yoxud shunday zo‘rlık ishlatish bilan qo‘rqitib sodir etilgan bo‘lsa, – besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bosqinchilik:

- a) qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa narsalarni ishlatib;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) ancha miqdordagi mulknı talon-toroj qilish bilan bog‘liq holda sodir etilgan bo‘lsa, – sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bosqinchilik:

- a) takroran, xavfli retsivist yoki ilgari ushbu Kodeksning 242-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan;

- b) ko'p miqdorda;
- v) uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda;
- g) badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa, – o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bosqinchilik:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) o'ta xavfli retsivist tomonidan;
- v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, – o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

**Asos:** Jinoyat kodeksi

Ushbu moddani to'g'ri qo'llash to'g'risida quyidagi Oliy Sud Plenumi qarori bilan tansihib chiqishingiz mumkin:

O'zgarlar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti

### **32-savol**

***Badanga yengil tan jarohati yetkazganlik uchun javobgarlikga tortiladimi?***

*“Kuyovim bilan urushib qoldim. Kuyovim meni haqorat qilib, yengil tan jarohati yetkazib qochib ketdi. IIB xodimlariga xabar berib, javobgarlikka tortish mumkinmi?”*

**O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasiga** binoan haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari badanga yengil tan jarohati yetkazganlik uchun ham javobgarlik mavjud ya'ni agar ehtiyotsizlik oqibatida yengil tan jarohati yetkazilgan bo'lsa bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Qasddan yengil tan jarohati yetkazish, bu harakat sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan to'rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

***Xulosa qilib aytganda, haqorat qilgan va yengil tan jarohati yetkazgan fuqaro jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikga tortilishi mumkin.***

**Asos:** O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi

### **33-savol**

***Muddati o'tgan jarima qanday undiriladi?***

*“Muddati o'tgan jarimani undirish MIBga o'tsa MIB jarimadan tashqari yana boshqa to'lov undirishi mumkinmi? Mening yo'l harakati qoidasini buzganligim uchun muddati o'tgan 125 ming so'm jarimam bor edi. Shuning undiruvi MIBga o'tgandan keyin MIBdan menga 125 ming so'mdan tashqari yana 117 ming so'm to'lashim kerakligi to'g'risida ogohlantirish yuboribdi. Shu to'g'rimi?”*

Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir.

Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa bu huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yo'l harakati qoidalari buzilgan taqdirda jarima summasi 60 kalendar kuni ichida to'lanmagan taqdirda, to'lanmagan qarzdorlik summasini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy ijro va sud organlari bilan hamkorlikda transport vositasi hisobidan undirish choralari ko'riladi.

Bu degani agarda belgilangan muddat ichida jarima to'lanmagan taqdirda Majburiy ijro byurosi tomonidan jarima undirish chorasi ko'rilishi mumkin.

Sizga kelgan 117 ming so'm qo'shimcha to'lov Ijro yig'imi bo'lishi mumkin. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 77<sup>1</sup>-moddasida belgilanki, Davlat ijrochisi tomonidan ijro hujjatlarini majburiy ijro etish bo'yicha harakatlar amalga oshirilganligi uchun qarzdordan ijro yig'imi undiriladi.

Davlat ijrochisining ijro yig'imini undirish to'g'risidagi qarori mazkur qaror qaysi ijro ishi yuritish yuzasidan chiqarilgan bo'lsa, o'sha ijro ishiga qo'shib qo'yiladi va alohida ijro ishi yuritishni qo'zg'atmasdan ijro etiladi.

Ijro yig'imining miqdori va undirilish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

### **34-savol**

#### ***Ariza javobi muddati buzilsa, bunga qanday chora ko'riladi?***

*"Haqorat bo'yicha tuman IIBga ariza bilan murojaat qilganman. Lekin bu ish ko'rib chiqilmayapti. Qonun bo'yicha belgilangan muddati buzilsa qayerga murojaat qilay?"*

**O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonunining 46-moddasi 4-qismiga ko'ra,** qaysi jismoniy yoki yuridik shaxs o'zining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga ichki ishlar organi xodimining harakatlari yoki harakatsizligi sabab bo'ldi deb hisoblasa, o'sha jismoniy yoki yuridik shaxs ushbu harakatlar yoki harakatsizlik ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga, prokurorga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituvchi to'g'risidagi kodeksning 3-moddasida** kodeksning amal qilish sohasi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish hamda hal etishda ma'muriy sud ishlarini yuritishni amalga oshirish tartibiga nisbatan tatbiq etiladi.

Shunday ekan siz o'z huquqlaringizni himoya qilish uchun, tuman yoki shahar ma'muriy sudiga ichki ishlar xodimining harakatsizligi ustida shikoyat qilishingiz mumkin.

**Asos:** Ichki ishlar organlari to'g'risidagi qonuni  
Ma'muriy sud ish yurituvchi to'g'risidagi kodeks

### **35-savol**

#### ***Sudda ish ko'rib chiqilayotganda qaysi tomon sud xarajatlarini qoplaydi?***

*"Yuridik shaxs va jismoniy shaxs o'rtasida oferta buzilishi ro'y bersa ya'ni yuridik shaxs hech qanday ogohlantirishsiz jismoniy shaxs bilan o'rtadagi shartnomaga mos kelmaydigan, hech qanday manfaatsiz xizmatni amalga oshirsa,*

*bundan bexabar qolgan jismoniy shaxs qilingan xizmat uchun haq to'lamasligini aytsa, uzil kesil rad etsa (bu yerda ogohlantirmagani uchun) va og'zaki shartnomani buzsa, qonuniy shartnoma bekor qilmagan bo'lsa, oradan 1 yilcha vaqt o'tgach «yuridik» shaxs tomonidan qilingan xizmat haqqini undirish uchun ma'muriy sudga oshirsa orada nizo kelib chiqsa, sudda ish ko'rib chiqilayotganda sud xarajatlarini kim tomonidan undiriladi «yuridik shaxs=arizachi» «jismoniy shaxs=javobgar»*

*Bu yerda jismoniy shaxsning qanday huquqlari bor? Nizoni qanday bartaraf etsa bo'ladi?"*

**O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituvini to'g'risidagi qonunning 115-moddasiga** ko'ra, Sud xarajatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning qanoatlantirilgan talablar miqdoriga mutanosib ravishda ularning zimmasiga yuklatiladi.

Hal qiluv qarori o'z foydasiga chiqarilgan tarafga ish bo'yicha qilingan barcha sud xarajatlarining o'rnini, garchi boshqa taraf davlat bojini to'lashdan ozod etilgan bo'lsa ham ushbu boshqa taraf hisobidan qoplanadi.

Arizachi to'lashdan belgilangan tartibda ozod qilingan davlat boji, agar javobgar boj to'lashdan ozod qilinmagan bo'lsa, qanoatlantirilgan talablar miqdoriga mutanosib ravishda javobgardan respublika budjeti daromadiga undiriladi.

Arizachining talablari u sudga murojaat qilganidan so'ng javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda qanoatlantirilsa, sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatiladi.

Davlat boji to'lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab arz qilingan talablarni qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlari ko'zlanib ariza taqdim etilgan shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud xarajatlarini taqsimlash to'g'risida kelishib olsa, sud ushbu kelishuvga muvofiq hal qiluv qarorini qabul qiladi.

**Xulosa, sudda yutqazgan tomon sud xarajatlarini qoplaydi.**

**Asos:** Ma'muriy sud ish yurituvini to'g'risidagi kodeks

### **36-savol**

***Harbiy majburiyat qanday tartibda amal qiladi?***

*"Men 1 oylik harbiy xizmatga shartnoma qilganman. To'lovni 100% bajarganman. Yoshim 22da, ular meni hozir harbiy xizmatga borishim kerakligini aytishmoqda, ammo meni esa hozir borishga imkonim yo'q. Mening majburiyatim qanday, ular aytgan paytda xizmatga borishim kerakmi yoki borish muddatini keyinroqqa surdirdsam ham bo'ladimi?"*

O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezervi safiga olinadilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisobvarag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat safiga shaxslar yigirma yetti yoshga to'lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar.

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tagan fuqarolar yigirma yetti yoshga to'lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezervi tarkibiga o'tkaziladilar.

**Xulosa, shunday ekan, kontraktni to'laganingizdan qat'i nazar, xizmatni kechiktirish mumkin emas.**

**Asos:** O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni

### **37-savol**

***Ehtiyotsizlik yoki e'tiborsizlik oqibatida jinoyat sodir etsa jinoyatga sherik hisoblanadimi?***

*"S ismli xodim o'zidan oldin turuvchi xodimni aytgani qilib noqonuniy hujjatlarni tayyorlab bergan lekin bundan habari bolmagan. S jinoyatda yordamchi bo'ladimi?"*

Amaldagi Jinoyat kodeksida jinoyat ishtirokchilari toifalari belgilangan bo'lib, ulardan biri yordamchi hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 28-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi.

Shuningdek, shaxs yordamchi deb topilishi uchun unda mazkur jinoyatda ishtirok etishga nisbatan qasd yoki ehtiyotsizlik(jinoyatning sub'yektiv tomoni) bo'lishi lozim. Savoldagi holatda esa bexabarlik deb ko'rsatilgan. Mazkur holat yordamchi deb topilishiga asos bo'lmaydi. Ammo o'z mansab lavozimiga nisbatan sovuqqonlik uchun, e'tiborsizlik uchun javobgarlikka tortilishi mumkin.

**Asos:** Jinoyat kodeksi









